


Orolbo‘yi mintaqasini o‘rmonzorlashtirishning aholi salomatligi va ekologiyani barqarorlashtirishdagi o‘rni

Orol dengizining qurishi XX asrning eng yirik ekologik falokatlaridan biri sifatida qayd etiladi. Markaziy Osiyo hududida joylashgan bu dengiz ilgari dunyodagi eng katta ichki suv havzalaridan biri bo‘lgan. Biroq, inson faoliyati, ayniqsa, noto‘g‘ri suv siyosati natijasida uning hajmi keskin kamayib, jiddiy ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni keltirib chiqardi.



Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi tomonidan **Orolbo‘yi mintaqasini o‘rmonzorlashtirishning aholi salomatligi va ekologiyani barqarorlashtirishdagi o‘rni** o‘rganildi.

Orol dengizi muammosini hal qilishda mintaqa davlatlari va xalqaro tashkilotlar tomonidan qator tashabbuslar, O‘zbekiston tomonidan esa Orolbo‘yi hududini tiklash va aholi turmush sharoitini yaxshilash bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan Orolbo'yi ekologik innovasiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilingan. Qurigan dengiz tubida keng ko'lamli ko'kalamzorlashtirish ishlarini olib borish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan muhim loyihalar ilgari surilgan.

Mazkur tashabbuslar nafaqat milliy, balki global miqyosda ham katta ahamiyat kasb etib, Orol dengizi falokatini yumshatish va barqaror rivojlanishni ta'minlash yo'lida muhim qadam bo'lib xizmat qilmoqda.

Orol dengizining qurishi mintaqaning tabiiy muhiti, iqtisodiyotiga, aholi hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Hozirgi kunda dengizning Sharqiy qismi to'liq qurib, suv dengizning G'arbiy qismida qisman saqlanib qolgan.

Jahon banki ekspertlariga ko'ra, har yili Orolqumdagi qum va chang bo'ronlari kelgusi 20 yilda mintaqaga 840 mln dollardan ko'proq zarar keltirishi mumkin. Hududda har yili 15-75 mln tonna qum, chang va tuzlar, pestisid va mineral o'g'itlar qoldiqlarini o'z ichiga olgan zararli moddalar havoga ko'tarilmoqda.

Qoraqalpog'istonda so'nggi yillarda aksariyat tumanlarda yer osti suvi sathi pasayib, suv tanqisligi ham kuzatilmoqda.

Bundan tashqari, sug'oriladigan yerlarning sho'rlanganlik darajasi ham yuqoriligicha qolmoqda: 2020 yilda yerlarning sho'rlanganlik darajasi **70,5 %** ni tashkil qilgan bo'lsa, 2021 yilda bu raqam **70,9 %**, 2022 yilda – **71,2 %**, 2023 yilda – **71,2 %**, 2024 yilda – **70,6 %**, 2025 yilda – **63,6 %** bo'lgan.

2018 yildan boshlab Orolbo'yi mintaqasida o'rmonzorlar barpo etish ishlari boshlandi. Hozirgi kunda o'rmonzorlarning maydoni **2,1 mln** gektarga yetkazildi. Ushbu jarayonda barqaror yashil qoplam yaratish uchun interdissiplinar yondashuv, innovasion agrotexnik usullar qo'llanilmoqda. Bu yondashuv Orolqumda funksional va barqaror ekotizimlarni tiklash imkonini bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 16 fevraldagi farmoni bilan tasdiqlangan **“O'zbekiston – 2030” strategiyasida** Orol dengizining qurigan tubida va Orolbo'yi (*Xorazm, Buxoro, Navoiy*) hamda boshqa cho'l hududlar (*Jizzax, Qashqadaryo va Surxondaryo*)da qo'shimcha **1,3 mln** gektar maydonda “yashil qoplamalar” barpo etish ko'zda tutilgan.

Orolbo'yi hududida tizimli amalga oshirilayotgan keng ko'lamli o'rmonzorlashtirish ishlari aholining salomatligini yaxshilashga, ekologik holatni barqarorlashtirishga xizmat qilmoqda.

Orol dengizining qurigan tubida saksovul va boshqa cho'l o'simliklarini ekish ishlari amalga oshirilishi natijasida shamol orqali tarqaladigan tuz va chang zarrachalari miqdori kamayib, atmosfera havosi sifatining yaxshilanib, aholi salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishni boshlagan.



2017-2024 yillarda qayd etilgan kasalliklar dinamikasi tahlil qilinganda, umumiy holatda kasallanish ko'rsatkichlarida pasayish kuzatilgan. Jumladan, **jami hisobga olingan kasalliklar soni** 2017 yilda **865,7 mingni** tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilda **697,3 mingni** tashkil etib, deyarli **20% ga pasaygan** (1-diagramma).

1-diagramma



Ayrim kasalliklar bo'yicha ham barqaror pasayish kuzatilmoqda. Ayniqsa, ekologik holat bilan bevosita bog'liq hisoblangan **nafas olish a'zolari kasalliklari** sezilarli darajada kamaygan. Ushbu kasalliklar 2017 yildagi **325,2 mingdan** 2024 yilda **218,9 mingga** tushib, **32,7 %ga kamaygan** (2-diagramma).

2-diagramma



Shuningdek, hisobot davrida siydik-tanosil tizimi kasalliklari 78 mingdan 41 mingga tushgan (47,4%ga kamaygan). Ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklari ham kamaygan: 92,5 mingdan 74,9 mingga tushib, **19,1%ga kamaygan** (3-diagramma).

3-diagramma



Hozirda Qoraqalpog'iston Respublikasida atmosferaga chiqariladigan ifloslantiruvchi moddalar miqdori ham sezilarli darajada kamaygan. Agar 2017 yilda o'rtacha **37,7 ming tonna** zararli moddalar havoga ko'tarilgan bo'lsa, 2024 yilga kelib, bu ko'rsatkich **10,5 ming tonnani** tashkil qilgan (72%ga kamaygan).

Dengizning qurigan tubida "yashil qoplamalar"ning barpo etilishi natijasida Qoraqalpog'iston Respublikasida flora va faunaning bio xilmaxilligi biroz ortgan (0,5%ga), sut emizuvchilar turlari ham nisbatan ko'paygan (0,2%), hasharotlar turlarining ham keng tarqalishi aniqlangan.

Shuningdek, havo sifatining biroz yaxshilangani kuzatilmoqda. Jumladan, havodagi chang miqdori 2018 yil $0,59 \text{ mg/m}^3$ ni tashkil etgan bo'lsa, 2025 yilda $0,54 \text{ mg/m}^3$ bo'lgan.

Ekspertlarga ko'ra, Orol tubini yashillashtirish masalasi Davlat siyosati darajasiga olib chiqilib, keng ko'lamli o'rmonzorlashtirish ishlari amalga oshirilishi, shamol orqali tarqaladigan tuz-chang zarrachalarining kamayishi hamda turli kasalliklar bo'yicha qabul qilingan Skrining dasturlar aholi orasida kasallanish darajasini pasaytirishga imkon bergan.

Ekologiyaning yaxshilanishi hududga ko'chib keluvchilar soniga, shahar va ovullardagi aholi kayfiyatiga, ularning iqtisodiy faolligiga ham ijobiy ta'sir qilgan.

So'nggi uch yilda mintaqada aholining muqimlashishi va ko'chib kelish oqimining izchil ortishi kuzatilmoqda. Milliy statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Orolbo'yi hududlarida ekologik vaziyatning yaxshilanishi aholining yashash joylarini tark etishini kamaytirib, hududiy jozibadorlikni oshirgan.

Jumladan, 2023 yilda **Nukus shahriga** 2,8 ming kishi ko'chib kelgan bo'lsa, 2025 yilda bu ko'rsatkich qariyb 4,7 ming nafarni tashkil etgan. **Nukus** tumaniga ko'chib kelganlar 966 nafardan 1 041 nafarga, **Amudaryo** tumanida 522 nafardan 838 nafarga, **To'rtko'l** tumanida 518 nafardan 923 nafargacha, **Beruniy** tumanida 378 nafardan 871 nafarga oshgan.

Qo'ng'iro't tumanida xorijga ko'chib ketuvchilar sonining 2023 yildagi 800 nafardan 2025 yilda 516 nafargacha kamaygan.

2025 yilda **Mo'ynoqqa** 168 nafar, **Qorao'zakka** esa 112 nafar aholi ko'chib kelgani aniqlangan.

Qoraqalpog'iston **iqtisodiyotining ayrim sohalarida** ham o'sish sur'atlari kuzatilganligini ko'rish mumkin. Mutaxassislarga ko'ra, Orolning qurigan tubidagi o'rmonzorlarning kengaytirib borilishi, chorvachilik uchun yangi yaylovlar va asalarichilik uchun sharoitlarning yaratilishi ham o'ziga xos ravishda ijobiy natijaga ega bo'lmoqda. Buni hududda qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining 2017- 2025 yillarda 4,8 trln so'mdan 17,9 trln so'mgacha (*3,7 baravarga*) oshganida ham ko'rish mumkin. Sohada barqaror o'sish sur'atlari saqlanib qolmoqda.

Agar dastlabki yillarda yillik o'sish sur'ati o'rtacha 1,6 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022 yildan boshlab bu ko'rsatkich yiliga 2,1 trln so'mgacha jadallashgan. Bu dinamika agrar sohada mahsuldorlik va yerdan foydalanish samaradorligi izchil oshib borayotganidan dalolat beradi.

Shuningdek, tadbirkorlik sohasida ham ijobiy o'zgarishlar dinamikasi kuzatilmoqda. Qoraqalpog'iston Respublikasida kichik tadbirkorlik sub'ektlari soni 2017–2025 yillar oralig'ida 11 mingtadan 26,3 mingtaga ko'paygan. Jarayonda eng faol o'sish bosqichi 2019–2023 yillarga to'g'ri kelgan hamda har yili tadbirkorlik sub'ektlari soni o'rtacha 3,3 mingtaga oshgan.

O'rganishlar natijasiga ko'ra, iqtisodiy yuksalish sur'atlari ayniqsa 2024–2025 yillarda keskin faollashib, jami ko'rsatkichning qariyb **40 foizi** aynan shu oxirgi ikki yil hissasiga to'g'ri kelgan.

Ta'kidlash kerak, Qoraqalpog'istonda ekologik holatning yaxshilanishi va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy sohada ijobiy faktorlarning yaratilishi natijasida hududga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya kiritish hajmiga ham ijobiy ta'sir o'tkazgan.

Xususan, 2019 yilda hududga **6,5 mln dollarga** teng to'g'ridan-to'g'ri investisiya kiritilgan bo'lsa, 2024 yilda bu raqam **221 mln**, 2025 yilda esa **478 mln** dollarni tashkil qilgan. Investisiya kiritayotgan davlatlar 2019 yil **1 tani** tashkil etgan bo'lsa, 2026 yil I chorakning o'zida **38 taga** yetgan.

Ekspertlar fikricha, davlat tomonidan Qoraqalpog'iston uchun yaratilayotgan moliyaviy imkoniyatlar, soliq tizimidagi yengilliklar, chet el investorlariga yaratilayotgan sharoit va imtiyozlar, hududni rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston viloyatlarining har bir tumanga birlashtirilishi kabilar Qoraqalpog'istonning har tomonlama taraqqiy topishiga asos bo'lmoqda.

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, suvi kamayib borayotgan ko'llar atrofini, cho'llashib borayotgan hududlarni ko'kalamzorlashtirish, ularning ekologik holatini barqarorlashtirishda qator usullardan foydalanilmoqda.

Masalan, **Xitoy** 1978 yildan beri amalga oshirib kelayotgan "Buyuk yashil devor" (*Three-North Shelter Forest Program*) loyihasi doirasida uzunligi 4,5 ming km bo'lgan Gobi cho'lini jilovlash uchun millionlab daraxtlar va nihollarni ekishda davom etmoqda. O'simliklarni qum bosib qolmasligi va undan to'sish uchun qamishlardan tayyorlangan maxsus to'rlar bilan ularni o'rab qo'yilmoqda. Namlikni saqlash maqsadida, o'simliklarni tomchilab sug'orish, "urug'li tuproq"—bakteriyalar va suv o'tlari aralashmasini qumga aralashtirib, qumning unumdor qatlamini hosil qilib, biotexnologiya usullari qo'llanilmoqda. Natijada Mu-us cho'lining 30 foizgacha qismi vohaga aylantirilgan. Sinszyandagi Aksu hududining 80 ming gektar yeriga 14 mln daraxt ekilib yashillashtirilgan.

Saudiya Arabistonida “Saudi Green Initiative” loyihasiga asosan 40 mln gektar cho‘l hududning degradasiyaga uchragan va qumga aylanib qolgan qismida 10 mlrd quruqlikka chidamli ko‘p yillik daraxtlar (*tamarisk, juzg‘un-kandim, tuyaqorin, kurmak*) ekilmoqda. Mamlakat suvni tozalashda mikroorganizmlardan foydalanish, qumga har xil o‘g‘itlarni aralashtirish usullari orqali cho‘llashgan yerdan unumli foydalanishga erishmoqda.

Isroilda o‘rmonzorlashtirish ishlari tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bugungi kunga qadar 250 ming gektardan ziyod hududda 240 mlndan ortiq daraxt ekilgan. Ayniqsa, Negev cho‘lida amalga oshirilgan “Yatir Forest” loyihasi 30 ming gektarga yaqin maydonni qamrab olgan bo‘lib, u dunyodagi eng yirik sun‘iy cho‘l o‘rmonlaridan biri hisoblanadi. Ushbu loyiha doirasida atmosferadan karbonat angidridni yutish, shamol eroziyasini kamaytirish va mahalliy iqlimni yumshatishga erishilgan.

Efiopiyada 2019 yildan boshlab amalga oshirilayotgan “Yashil meros” tashabbusi (*“Green Legacy Initiative”*) dasturi doirasida bir kunda 350 mln tupdan ortiq daraxt ekish orqali jahon rekordi o‘rnatilgan, umumiy ekilgan ko‘chatlar soni 32 mlrd tupdan oshgan. Ushbu ko‘rsatkichlar mamlakatda o‘rmonzorlashtirish ishlari faqat reja emas, balki ommaviy harakatga aylanganini ko‘rsatmoqda.

Mamlakatda yer degradasiyasini to‘xtatishda qimmat bo‘lmagan, lekin samarali texnologiyalarga urg‘u berilgan, tog‘ yonbag‘irlarida terrasalar barpo etish va yomg‘ir suvini yig‘ish tizimlarini qo‘llash orqali tuproq eroziyasi keskin kamaytirilgan.

Umuman olganda, O‘zbekistonda so‘nggi yillarda Orolbo‘yi hududini rivojlantirish va ekologik barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan davlat dasturlari, loyihalar hamda qonunchilik mexanizmlari joriy qilinishi natijasida atmosferaga chiqariladigan ifloslantiruvchi moddalar miqdori kamaygan, aholi orasida kasallanish darajasi sezilarli darajada tushgan.

Bu aholi yashash joylarini tark etishini oldini olishda ham ijobiy natija bergan, flora va faunaning bio xilma-xilligi biroz ortgan, sut emizuvchilar va hasharotlar turlari ham ko‘paya boshlagan.

Ayniqsa, ijtimoiy-iqtisodiy sohada ijobiy faktorlarning yaratilishi, ekologiyaning yaxshilanishi tadbirkorlik sohasida ham o‘sish dinamikasiga ijobiy ta‘sir o‘tkazgan.

**Demokratik jarayonlarni
tahlil qilish markazi**